



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД  
ТЎХТАМУРОВОВИЧ**  
Қонунчилик ҳужжатлари тизимини  
такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий  
асослари
- 14 **МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА  
АБДУРАШИДОВНА**  
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма  
в развитии духовно-просветительских традиций  
будущих юристов
- 21 **ISMOILOV BEKJON SALIHOVICH**  
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida  
O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish  
muammolari
- 31 **ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ**  
Стратегическое планирование:  
теоретические и методологические аспекты

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.  
MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 39 **БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ**  
Ўзбекистонда кўппартиявий тизимнинг  
шаклланиши ва ривожланиши
- 50 **RAKHIMOV DILMURODJON  
GULOMJON OGLI**  
Some issues of the legal status of civil  
servants in Uzbekistan

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA  
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 59 **БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ**  
Искусственный интеллект: возможна ли  
ответственность роботов?

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН  
ЮЛЧИБОВЕВИЧ**  
Фуқаролик ишлари бўйича биринчи  
инстанция суди ҳужжатларини  
такомиллаштириш масалалари
- 81 **ХАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД  
АБДУСАИДОВИЧ**  
Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини якуний  
босқич сифатида ихтиёрий ижро этиш
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**  
Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda sun'iy  
intellektning o'rni
- 95 **XUDOYNazarov DADAXON  
AVAZ O'G'LI**  
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror  
ishtirokining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBЕК  
ABDULLO O'G'LI**  
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual  
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**  
Возникновение и развитие альтернативных  
способов разрешения споров: национальный  
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**  
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining  
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**  
Некоторые вопросы совершенствования  
механизма исполнения судебных решений  
о взыскании алиментов

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.  
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**  
Ҳарбий ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя:  
тушунчаси ва моҳияти
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**  
Ўриндошлик асосида ишламайдиган бошқа  
ходимнинг ишга қабул қилиниши, шунингдек,  
ўриндошлик иши чекланганлиги сабабли  
меҳнат шартномасини бекор қилиш масалалари

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI  
OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**

Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,  
metodologik asoslari va bosqichlari

156 **ТОШПЎЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**

Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,  
тушунча ва белгилар

166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH  
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**

Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi  
omillar

174 **АНОРБОВ МУРОДЖОН  
РАХМАНКУЛ УГЛИ**

Общая характеристика преступлений  
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**

The legal and institutional regulation of tourism  
in the Republic of Uzbekistan: emergence and  
development

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)

190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**

Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният  
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 349(575.1)  
ORCID: 0000-0001-6765-3821

## NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR TA'LIMI SOHASIDA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Ismoilov Bekjon Salihovich,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
e-mail: bekjon.4@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limining tashkiliy-huquqiy shakllariga bevosita e'tibor qaratilgan. Alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'limi tahlil qilinarkan, bu jabhadagi ayrim muammolar va ularning yechimlarini ochib berishga harakat qilingan. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi maxsus qonun amaliyotga kiritilganidan so'ng bu kabi shaxslar huquqlarini ta'minlash mavjud qonunchilik asoslariga muvofiq yanada mustahkamlandi. Jumladan, ularning ta'lim olishi bilan bog'liq masalalar ijobiy hal etilmoqda. Qo'shimcha ehtiyojli shaxslarning ta'lim olish shakllarini o'zlari mustaqil belgilash imkoniga ega bo'layotgani ijobiy hal etilayotgan masalalarning yaqqol ifodasidir. Shuningdek, maqolada nogironligi bor shaxslarning ta'lim olish jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarning huquqiy va ijtimoiy yechimlari atroflicha tahlil qilingan. Bizga ma'lumki, bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarni fuqarolik jamiyati muhitiga integratsiya qilish bu boradagi davlat siyosatining mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda. Shu ma'noda, qo'shimcha ehtiyojli shaxslarni ta'lim sohasi orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish mantiqan to'g'ri yo'ldir. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi masalalari sohasiy qonunchilik asoslari talablari doirasida tartibga solinar ekan, ularning huquqiy maqomlari ham yaratilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan yanada mustahkamlanmoqda. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limini yanada takomillashtirish hamda ularga ta'lim olishlari uchun qulay muhit yaratish bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, bu borada ayrim muammolar ham mavjud. Ko'zi ojiz ta'lim oluvchilar uchun brayl yozuvi yoki audio formatdagi darsliklarning yetarli emasligi, hanuzgacha inklyuziv ta'limning samarali yo'lga qo'yilmaganligi shular jumlasidandir. Maqolada masalaning aynan mana shu jihatlarini ochib berishga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** nogironligi bo'lgan shaxslar, ta'lim, inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, imtiyozlar.

### ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Исмаилов Бекжон Салихович,  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье рассматриваются организационно-правовые формы обучения людей с ограниченными возможностями. При анализе сферы образования для людей с особыми потребностями была предпринята попытка выявить некоторые проблемы в этой области и пути их решения. После принятия в нашей стране специального закона о правах лиц с инвалидностью защита их прав была усилена в соответствии с действующим законодательством. В частности, положительно решаются вопросы, связанные с образованием. Тот факт, что люди с дополнительными потребностями могут самостоятельно определять форму обучения, является четким указанием на положительное решение поставленных задач. В статье также представлен подробный анализ правовых и социальных решений некоторых проблем, с которыми люди с ограниченными возможностями сталкиваются в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** лица с ограниченными возможностями, образование, инклюзивное образование, права инвалидов, льготы.

## PROBLEMS OF IMPROVING THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF EDUCATION OF THE DISABLED

**Ismoilov Bekjon Salikhovich,**  
Independent researcher  
at Tashkent State University of Law

**Abstract.** *The article discusses the organizational and legal forms of teaching people with disabilities. When analyzing the education of people with special needs, an attempt was made to identify some problems in this area and ways to solve them. After the adoption in our country of a special law on the rights of persons with disabilities, the protection of the rights of such persons was strengthened in accordance with the current legislation. In particular, issues related to their education are being positively resolved. The fact that people with additional needs can independently determine the form of education is a clear indication of the positive issues to be addressed. The article also provides a detailed analysis of legal and social solutions to some of the problems that people with disabilities face in the educational process.*

**Keywords:** *disabled people, education, inclusive education, rights of disabled people, benefits.*

### Kirish

Bugungi kunda davlat taraqqiyotining keyingi bosqichida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi masalasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Boisi bu toifa shaxslarning ta'lim sohasi orqali jamiyatdagi faolliklarini oshirish muhim vazifa sanaladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz [1].

Shu ma'noda mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati dasturlari bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan zarur shart-sharoitlar yaratish, jamiyat hayotida ularning o'rni va faolligini oshirish, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlariga muvofiq, har bir yosh fuqaroning huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi.

Yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin emas [3].

Talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish eng muhim vazifalardan biri sanaladi [4].

O'zbekiston qonunchiligida nogironligi bor yoshlar uchun ta'lim olishda teng sharoit va imkoniyatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan baholash yoki imtihonlarda juda kam moslashuv mavjud. Umuman olganda, qonunchilik asoslari ta'limni inklyuziv sharoitlarda ta'minlashdan ko'ra, katta darajada alohida ajratilgan va ixtisoslashgan bo'lishiga yordam beradi.



O'zbekistonda oliy ta'limga kirish imtihonlarida hali ham qattiq raqobatga dosh bera oladigan tanlangan imtiyozli kamchilik qatlami uchun mavjud. Ushbu vaziyat oliy ta'lim muassasalarining soni kamligi va oliy ta'limga bo'lgan yuqori talab sababli saqlanib qolmoqda. O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan aholi soni 60 %ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq, har bir kishi ta'lim olish huquqini amalga oshirishi va davlat o'rta maxsus ta'limni bepul kafolatlashi kerak. Qonunchilik, siyosat va me'yoriy hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslarni (ko'rish muammolari mavjud kishilardan tashqari) baholash va imtihonlarning moslashuvini nazarda tutmaydi. Bu esa nogiron yoshlarning ishga joylashish va mustaqil hayot kechirishiga olib keladigan har qanday turdagi ta'limdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Bugungi kunda mavjud bo'lgan huquqiy me'yor va qoidalardan hech biri davlatning inklyuziv sharoitda ta'lim berish majburiyatini hisobga olmaydi. Bu esa mavzuning o'rganilishi, unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

#### **Material va metodlar**

Maqola umum qabul qilingan metodlar: qiyosiy-tahliliy, qiyosiy-mantiqiy ketma-ketlik asosida yoritilgan bo'lib, unda nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolari ilmiy tahlil etilgan.

#### **Tadqiqot natijalari**

Bugungi kunda xalqaro standartlar asosida nogironligi bor insonlar huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatimiz diqqat-markazida turgan muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu ma'noda 2021-yil 7-iyunda davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani mamlakatimizda ratifikatsiya qilish borasidagi qonun bu borada ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Qabul qilingan ushbu qonunga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi nogironligi bo'lgan shaxslar o'z hayotining barcha sohalarida boshqalar bilan teng ravishda huquq layoqatiga ega ekanligini tan oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konvensiya tegishli holatlarda va qonunga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarning qo'llab-quvvatlashdan foydalaniishi hamda qarorlar qabul qilish mexanizmlarini almashtirishni ta'minlash bo'yicha tegishli cho-

ra-tadbirlar ko'rishga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning muomala layoqatini cheklashga yo'l qo'yadi deb tushunganligini ma'lum qiladi" [13].

O'z navbatida, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi [14].

BMT tomonidan qabul qilingan konvensiyalarning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari himoya qilinishining yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Demoqchi bo'lganimiz, 2006-yil 13-dekabrda BMT tomonidan tasdiqlangan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning davlatimiz tomonidan qabul qilinishi qo'shimcha ehtiyojli fuqarolar uchun keng qamrovli imkoniyatlar taqdim etadi. Shuningdek, ularning ta'lim olish jarayonlaridagi ayrim muammolarning milliy qonunchilik hamda xalqaro konvensiyalar talablariga muvofiq hal etilishida yuridik ta'sirchanlik namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017- yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoniga muvofiq, 2018-yil 2-iyunda 417-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi belgilab berildi [15].

Oliy ta'lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi [5].

Qabul jarayonida oliy ta'lim muassasasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmasi vakillaridan iborat tarkibda oliy ta'lim muassasasida nogironligi bo'lgan shaxslardan hujjatlar qabul qilish komissiyasi tashkil etiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslardan hujjatlar qabul qilish komissiyasi tarkibiga O'zbekiston nogironlar jamiyati vakili ham kiritilishi qat'iy bel-

gilab qo'yildi. Qabul komissiyasi nogironligi bor shaxs oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish talabi bilan murojaat qilganda, uning ariza hamda boshqa rasmiy hujjatlarini mavjud qonunchilik talablariga ko'ra rasmiylashtirishi shart. O'z navbatida, nogironlik holatini tasdiqlovchi rasmiy ma'lumotnoma ularning soha doirasidagi mavjud imtiyozlardan foydalanishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Davlat test markazi har yili nogironligi bo'lgan abituriyentlar to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchli ekanligini Sog'likni saqlash vazirligi vakolatlari yordamida tekshirib ko'radi. Agar mavjud ma'lumotlar haqiqiy ekanligi tasdiqlansa, kirish imtihonlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo'lmagan ball (56.7 ball) to'plagan nogironligi bo'lgan shaxslar ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya etilgan holda, qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalari doirasida talabalikka tavsiya etiladi. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish, karantin sharoitida oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini lozim darajada o'tkazish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq aniq strategik parametrlar belgilab olingan [6].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekistonda 780000 ga yaqin turli jismoniy nuqsoni bor insonlar istiqomat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, ularning juda kam foizli qismigina ta'lim olish huquqidan foydalana oladi. Qolganlari esa uy sharoitida hayot kechirishadi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining 41-moddasida belgilab qo'yilganidek, har kim bepul ta'lim olish huquqiga ega [16].

Shu ma'noda barcha ta'lim oluvchilarning bilim olishlari Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim jarayonlari asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlari, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq, ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq, ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishi, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishi hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi [17].

Nogironligi bo'lgan shaxslar ayrim holatlarda asossiz tarzda yuqorida sanab o'tilgan ta'lim bosqichlarining birortasida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Albatta, bu jarayon subyektiv nuqtayi nazardan nihoyatda achinarli. Bu holatlarni oilalardagi huquqiy madaniyatning yetishmasligi hamda dunyoqarashning sezilarli past ekanligi bilan izohlash mumkin. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir. Oilalarida jismoniy imkoniyati cheklangan farzandi bor ayrim ota-onalarda aynan mana shu jihat, ya'ni huquqiy madaniyat salohiyati kamlik qilmoqda [6].

Nogironligi bo'lgan shaxslar qobiliyatiga nisbatan ota-onalar hamda ijtimoiy muhitning ishonchsiz munosabatda bo'lishini bu kabi insonlar ta'limidagi eng katta muammolardan biri deb qarash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Alohida e'tibor-



ga muhtoj shaxslar ta'lim olishiga sharoit yaratib bermasdan to'sqinlik qilayotgan ayrim ota-onalar hamda oilalarga qo'llanilishi mumkin bo'lgan huquqiy choralarning jiddiy emasligi mazkur muammoni yanada murakkablashtiradi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida ham nogironligi bor talabalar uchun inklyuziv shart-sharoitlar yaratilmagan. Vaholanki, joriy yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 38-moddasida har bir nogironligi bor shaxs inklyuziv ta'lim olishga haqli deb belgilab qo'yilgan [19].

Inklyuziv muhit bu – talabaning jismoniy va aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda, unga nisbatan yo'lga qo'yiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Ana shunday ijtimoiy to'g'ri shakllangan muhitni yaratish inklyuziv o'quv jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Tabiiyki, bu jarayonlar xos yondashuvlarga ixtisoslashgan maxsus dasturlar, xalqaro darajadagi standartlar yordamida tartibga solinadi. R.Sh. Shomahmudovanning fikricha, inklyuziv ta'lim jamiyatda diskriminatsiyani kamaytiradi va bartaraf etadi [7].

O.I. Akimovning ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan o'quvchi yoshlarning shaxsiyati va jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, ularga maxsus sharoitlar asosidagi o'quv jarayonlarini yaratib berishi shart. Umumta'lim maktablari inklyuziv muhit yaratish orqali ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishi maqsadga muvofiq [8].

N.M. Nazarova inklyuziv ta'limning maqsadi nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida ijtimoiy hayot va fuqarolik jamiyati qonunlariga moslashtirishdan iboratdir, degan qarashni ilgari suradi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda huquqshunolar, sotsiologlar, psixologlar, malakali pedagoglar o'zaro hamkorlikda tizimli faoliyat yuritishlari lozim [9].

A.I. Jivickayaning fikr bildirishicha, inklyuziv ta'lim professional tuzilmalar negizida tashkil etilib, muntazam yangilanib borishi talab etiladi. Inklyuziv ta'limga jalb qilinayotgan alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilar qobiliyatlarini aniqlash, ular iste'dodlarini o'quv jarayonlari mobaynida namoyon qilish defektologlar va boshqa inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi zarur [10].

N.N. Mixaylovaning inklyuziv ta'lim borasidagi fikriga ko'ra, bu ta'lim shakli turli darajadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqlilik tamoyiliga asosan bilim olishini huquqiy jihatdan ta'minlaydi [11].

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan talabalarning o'quv jarayonlariga nisbatan aniq bir yondashuvlar mavjud emas. Bu holat, demak, ayrim universitetlar o'quv dasturlariga inklyuziv standartlar kiritilmaganligidan dalolat beradi. Bu kabi shaxslarning jamiyatning to'la huquqli a'zosi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish davr talabi sifatida qabul qilinishi kerak. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar ta'limiga nisbatan munosabatning yuzaki bo'lishi ular ilmiy salohiyatining tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Natijada oliy ta'lim muassasasini tayyor kadr sifatida tugatib ketayotgan shaxs jamiyat uchun foydasiz bir maqomga ega bo'lib qolish xavfi yuzaga keladi. Qo'shimcha ehtiyojli talabalarning, asosan, davlat byudjeti granti asosida ta'lim olishlarini hisobga oladigan bo'lsak, masalaning haqiqatdan ham chuqur mohiyatli ekanligini tushunishimiz qiyin bo'lmaydi, albatta. Bu fikr bilan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarga nisbatan o'quv jarayonlarida talablarni kuchaytirish va bu orqali ularga ortiqcha murakkabliklar keltirib chiqarish kerak, demoqchi emasmiz. Aytmoqchi bo'lganimiz, o'quv ta'lim jarayonlarida ularga qo'yiladigan talablarni standartlashtirish va optimallashtirish zarur. Ya'ni berilayotgan topshiriqlarning lozim darajada bajarilishi bo'yicha aniq ko'rsatkichlar belgilab olinishi shart.

Ayni paytda oliy ta'lim dargohlaridagi mavjud tartibga ko'ra, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni o'qitish metodikasi bo'yicha aniq bir ishlab chiqilgan standartlar mavjud emas. Bu standartlarning mavjud emasligi ayrim nogironligi bor talabalarning o'qish jarayonlariga nisbatan sovuqqonlik bilan yondashishiga sabab bo'lmoqda. Bizning nazarimizda, mana shunday holatlarni jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi borasidagi chuqur va puxta ishlab chiqilgan maxsus dasturlar yordamida bartaraf etish mumkin. Dastur alohida e'tiborga muhtoj talabalar ta'limi samaradorligini oshirish, ularning tanlagan kasblari bo'yicha sifatli kadr bo'lib yetishishlarini, kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqara-

rish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutmog'i kerak.

Amalda esa bu jarayonlar oliy ta'lim muassasalarining ichki tartib nizomlariga asosan muvofiqlashtirib boriladi. O'ylaymizki, bu borada nogironligi bo'lgan shaxslarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning huquqiy asoslarini yaratish bu masalani yuridik jihatdan tartibga solishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. To'g'ri, milliy qonunchiligimizda bu kabi shaxslarning universitet va institutlarga kirish imtihonlarini samarali tashkil qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari mavjud. Biroq ularning talabalikka tavsiya etilganidan keyingi ta'limi masalasida sohaviy huquqiy hujjatlar yetarli emas. Bu borada yaratilishi kerak bo'lgan huquqiy asoslarning muhim vazifasi turli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan nogironligi mavjud yoshlar bilim olishini mustahkamlashdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqilishi taklif etilayotgan ushbu nizom quyidagi bandlarni o'z ichiga qamrab olsa o'rinli bo'ladi.

1. Nogironligi bor shaxslar ta'limini ijtimoiy-huquqiy jihatdan tartibga soladigan mavjud mexanizmlarni takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish; bu bandga asosan, qo'shimcha ehtiyojli yoshlar ta'limini mavjud qonunchilikka muvofiq tashkil etishning nazariy jihatlarini ochib berish nazarda tutilishi shart. Bu toifa shaxslar ta'limi jarayonlarini tashkil etishda qaysi yondashuvlarga ko'ra ish tutish bo'yicha ham bu bandda alohida to'xtalib o'tish taklif etiladi.

2. Ushbu toifa ta'limi jarayonlarini tashkil etishning nazariy-amaliy uslubiyatini belgilab olish; bu borada metodlarning samarali qo'llanishi mavjud masala doirasidagi holatlarni o'rganish, tahlil qilishga imkon beradi. Ya'ni ushbu ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida metodlarning oqilona tanlanishi ishlayotgan ma'lum mexanizmlarni muayyan bir tizimga keltirishga yordam beradi. Shu ma'noda, bu o'rinda analiz, sintez, tizimli, funksional, yuridik-formal metodlardan

foydalanish muhim hisoblanadi. Formal-yuridik metodning bu jabhadagi roli nihoyatda muhim bo'lib, u nogironlar ta'limi sohasidagi huquqiy asoslar va yuridik normalar qo'llanilish realizatsiyasini tahlil qiladi. Funksional metodlar esa inklyuziv ta'lim jarayonlarining mavjud qonunchilik talablariga muvofiq tartibda amalga oshirilish darajalarini baholaydi. Analiz va sintez metodlari nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi jarayonlarida yuzaga kelayotgan barcha holatlarni nizomda belgilab qo'yilgan kategoriyalar yordamida o'rganadi. Umuman olganda, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning oliygohlarda ta'lim olish masalasining aniq bir metodlar yordamida tadqiq etilishi kutilayotgan maqsadga erishishning bosh omili bo'lib xizmat qiladi. Bu soha tizimiga nisbatan metodologik yondashuvning shakllanishi ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar ta'lim sifat darajasining oshishiga yordam beradi.

3. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limida pedagogik konseptual yondashuvlarni shakllantirish; bu bandda oliygohlarda faoliyat yuritayotgan pedagog mutaxassislarning jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishlash amaliy tajribalari va malakalarini muntazam oshirib boorish e'tiborga olinishi ustuvor ahamiyatga ega. Aynan mana shu jihat nogironligi bo'lgan shaxslar ta'lim jarayonlarini tashkil etish hamda ularning ilmiy salohiyatini baholashda muhim faktor bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kun ta'lim jarayonlari amaliyoti bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog mutaxassislari bu borada yetarli tajriba mavjud emas. Nogironligi bor pedagog mutaxassislari ishlayotgan ayrim universitetlardagina inklyuziv muhit nisbatan to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizdagi ko'plab oliy ta'lim dargohlarida inklyuziv muhit amaliyoti to'la-to'kis yo'lga qo'yilmaganligining asosiy sababi bu borada lozim darajadagi huquqiy normativlar va nazariy mezonlar ishlab chiqilmagan. Mavjud vaziyatni bir qarashda umumiy ko'rinishda qo'shimcha ehtiyojli shaxslarning universitetlarda kam sonli ekanligi bilan izohlash mumkin. Lekin ularning ta'lim olishlari uchun qulay muhit yaratish bu tizimda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

4. Axborot resurs markazlarida inklyuziv sharoitlar yaratish; alohida e'tiborga muhtoj talabalarining tahsil olayotgan oliygohlar axborot resurs markazlaridan erkin foydalana olishlari ham

eng asosiy muammolardan biridir. "Axborot-kutubxona resursi – moddiy obyektida matn, ovoqli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot". Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra universal hamda maxsus axborot-kutubxona muassasalariga bo'linadi.

Universal axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning turli sohalarini bo'yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalarini bo'yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi. Jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish axborot-kutubxona muassasalarida maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda, axborot yozilgan maxsus jismlarda axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi [12].

Viloyat o'quv ta'lim muassasalarining kutubxonalari deyarli yuqorida ta'kidlangan maxsus sharoitlarga ega emas. Bu holat, tabiiyki, jismoniy nuqtayi nazardan cheklangan insonga qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Agar biz oliygohlarda tahsil olayotgan ko'zi ojiz talabalar o'quv jarayonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning maxsus texnik vositalar bilan ta'minlanmaganligi sababli o'zgaralar yordamiga muhtojlik sezayotganini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri, bu holatni ulardagi jismoniy kamchilik e'tibori bilan obyektiv baholash mumkin. Biroq mavjud imkoniyat hamda resurslardan oqilona foydalangan holda, jismoniy nuqsoni bor talabalar uchun ta'lim olishning sifat darajasini sezilarli oshirish yo'llarini ishlab chiqsa bo'ladi. O'ylaymizki, ularga yaratib beriladigan bu kabi imkoniyatlar jismoniy nuqson oqibatida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shimcha ehtiyojli talabalarning sifatli ta'lim olishiga salbiy ta'sir o'tkazayotgan jihatlardan yana biri bu darslik sifatida tavsiya etilayotgan manbalarning ular uchun qulay shaklda emasligidir. Bu holatni darslik sifatida tavsiya etilayotgan kitoblarning brayl yozuvi yoki bu manbalarn-

ing audio format shakli mavjud emasligi bilan izohlash mumkin. Shu o'rinda e'tirof etib o'tish kerakki, bu muammo ayrim institut va universitetlarda nisbatan ijobiy hal etilgan. Misol uchun Toshkent davlat yuridik institutida davlat va huquq nazariyasi faniga tegishli ayrim manbalar audiolashtirilgan bo'lib, ushbu manbalar ko'zi ojiz talabalarning sifatli ta'lim olishida ustuvor ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent til va adabiyot universitetida ham bu masala ijobiy hal qilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi; nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi maxsus qonun kabi bir qator huquqiy asoslar audio formatga keltirilganligi yoki brayl yozuvida qayta nashr qilinganligi yuqorida keltirilgan fikrlarimizni mantiqan tasdiqlaydi. Biroq bu jarayonlarning doimiylik kasb etmasligi mavjud muammoning yechimsiz saqlanib qolayotganligiga sabab bo'lmoqda. Aslini olganda, oliy maqomga ega ta'lim muassasalari uchun darslik sifatida o'tilayotgan eng muhim kitoblarni audiolashtirish katta bir qiyinchilik keltirib chiqarmaydi. Binobarin, kitoblarning audiolashtirilishi nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar, balki sog'lom talabalar uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Hech kimga sir emaski, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan shaxslar lotin va kirill yozuvida nashr qilingan hamda umumjamoatchilik uchun mo'ljallangan kitoblardan ma'lumotlar olishda juda katta murakkabliklarga duch kelishadi. Sababi ular mavjud manbalarni mustaqil o'qish imkoniyatiga ega emaslar. Natijada o'quv darsliklarining audio shakllariga nisbatan bo'lgan talab kuchayib boraveradi. Gap shundaki, ushbu masalaning ijobiy hal etilmasligi ijtimoiy himoyaga muhtoj jismoniy nuqsoni bor bilim oluvchilarning ta'lim sohasida ham o'zgaralar yordamiga bog'lanib qolishlariga olib keladi.

O'zbekiston ta'lim sohasi taraqqiyoti texnik vositalar imkoniyatlari bilan bog'lanayotgan bir paytda ayrim oliygohlar kutubxonalaridan darsliklarning elektron variantlarini topish ham mushkul bir ish sifatida baholanyapti. Mana shunday holatlar, ta'bir joiz bo'lsa, ta'lim sifatiga o'ta jiddiy salbiy ta'sir o'tkazadi. Vaholanki, bu muammolarni ta'lim yo'nalishlari yaqinroq bo'lgan fakultetlar o'zaro hamkorlikda kelishilgan holda hal etishlari mumkin. Zotan, deyarli barcha oliygohlar ma'mu-

riy boshqaruv tizimida multimedia markazlari faoliyat yuritadi. Aynan mana shu multimedia markazlari yordamida ham eng muhim sohaviy darslik kitoblarni audio shaklga keltirsa bo'lad. Bu esa, tabiiyki, nogironligi bo'lgan talabalarining to'laqonli bilim olishlariga keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday imkoniyatlarning kengligi kelajakda sifatli kadrlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Agar mavjud vaziyatga huquqiy jihatdan baho beradigan bo'lsak, milliy qonunchiligimiz bu kabi ijobiy islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Davlat hokimiyati boshqaruvi organlari ham bu borada aniq bir strategiyaga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa bir qator soha mutasaddi tashkilotlari bu borada bir qator vakolatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ta'lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;

ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlar va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, nodavlat ta'lim tashkilotlariga ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga apostil qo'yish tartibini belgilaydi;

pedagogik kadrlarni ta'lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta'lim sohasida olib boradigan faoliyatlari quyidagi vakolatlarni bilan mustahkamlanadi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun davlat ta'lim standartlarini tasdiqlaydi;

davlat ta'lim standartlariga muvofiq, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona tarzda muvofiqlashtirish hamda unga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, mazkur maktablarda bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish ishlarini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi qonun hujjatlari muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin [18].

Ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar ta'lim sohasini yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda. Amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasi o'laroq, nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi samaradorligi oshib bormoqda. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ta'lim jarayonlari orqali qamrab olinmoqda. Ayrim holatlarda alohida e'tiborga muhtoj yoshlarning munosabatlari ta'lim sohasida yaratib berilayotgan imtiyozlarga nisbatan shaffof emas. Ya'ni qo'shimcha ehtiyojli shaxslarda mavjud imtiyozlardan oqilona foydalanish koeffitsiyenti nihoyatda past.

Bu borada shunday bir muammo mavjudki, bu masala nogironligi bor shaxslarni munosib kasbga yo'naltirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar ta'limida hal etuvchi ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Agar alohida e'tiborga muhtoj talabalarning istalgan kasblarda ishlab keta olmasligini inobatga oladigan bo'lsak, bu jihatning naqadar mulohazali ekanligini tushunib yetish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bizga ma'lumki, bu kabi shaxslarning o'z holatlariga ko'ra kasb tanlamasliklari ularning kelajakda ta'lim olishlaridan qat'i nazar, natijasiz qolishlariga olib keladi. Shu sababli ularni to'g'ri kasbga yo'naltirish ular hayoti uchun eng muhim omil hisoblanadi. O'qishga kirmoqchi bo'layotgan maxsus internat-maktab yoki kollej-litseylar bitiruvchilari uchun munosib kasblar ro'yxatini shakllantirish bu o'rinda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, respublikada faoliyat yuritayotgan maxsus internat-maktab ta'lim muassasalari, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogironlar jamiyatlari, jumladan, ko'zi ojizlar jamiyatlari, O'zbekiston kar-soqovlar jamiyatlari bu borada tizimli ishlarni olib borishlari zarur. Qaysiki ma'noda bu tashkilotlar nogironlikning har bir toifasiga to'g'ri keladigan kasblarni aniqlash maqsadida psixologik-sotsio-



logik, shuningdek, yuridik so'rovnomalar hamda tadqiqotlar o'tkazishlari talab etiladi. O'tkazilishi tavsiya etilayotgan ushbu so'rovnomalarda maxsus internat-maktablarning bitiruvchi o'quvchilari ham qatnashishlari nihoyatda muhim. Sababi oliygohga o'qishga kirish uchun hujjat topshirish darajasiga yetib borayotgan nogironligi bo'lgan bitiruvchilar qabul komissiyasiga hujjat topshirishayotganda, o'z kelajagi uchun foydali hisoblangan kasb bo'yicha aniq bir to'xtamga kelib ulgur-gan bo'lishi shart. Jismoniy nuqsoni bor maxsus internat-maktablari bitiruvchi o'quvchilarining kasb tanlash masalasida yakuniy bir xulosaga kelishlarini ta'minlash uchun ular bilan tajribali psixolog va malakali huquqshunoslar ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bu yerda psixolog va malakali huquqshunoslarning asosiy vazifasi qo'shimcha ehtiyojli maxsus ta'lim muassasasi bitiruvchilarini qaysi kasbga qobiliyatli ekanligini aniqlash, shuningdek, ularni ta'lim olishlariga tegishli imkoniyat hamda imtiyozlardan xabardor qilishdan iborat. Zero, bu jabhada ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi soha-ning muhim bir tamoyili sifatida qayd etiladi [10].

Bu ham biz mulohaza yuritayotgan masalaning eng muhim jihatlaridan biri sanaladi. O'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limida bu kabi islohotlar hamda chora-tadbirlarning tizimli olib borilishi alohida e'tiborga muhtoj abituriyentlarga

sohada bir qator qulayliklar yaratilishiga imkon beradi. Bundan tashqari, bu toifa talabalar ta'lim olish sifatini oshirishda nogironlik guruhlarida hamda ularning fiziologik darajalarini inobatga olish ham o'ziga xos hal qiluvchi ahamiyatga ega. Negaki oliygohlarda tahsil olayotgan jismoniy kamchiligi bor talabalar orqali oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv muhit shakllanadi.

### Xulosalar

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi [7].

Inklyuziv muhit bu – talabaning jismoniy va aqliy salohiyatidan kelib chiqilgan holda, unga nisbatan yo'lga qo'yiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Ana shunday ijtimoiy to'g'ri shakllangan muhitni yaratish inklyuziv o'quv jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Tabiiyki, bu jarayonlar xos yondashuvlarga ixtisoslashgan maxsus dasturlar, xalqaro darajadagi standartlar yordamida tartibga solinadi.

## REFERENCES

1. Prezident SH.M. Mirziyoyevning Oily Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 29.12.2021
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. 16.09.2016
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi. 14.09.2016 22-M.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmoni 08.10.2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida Qarori, 20.06.2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020/2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida qarori, 12.06.2020.
7. Inklyuziv ta'lim. O'zbekistondagi va xalqaro tajribalar. 2011, p. 11.
8. Akimova O. I. Inklyuzivnoe obrazovanie kak sovremennaya model obrazovaniya lits s ogranichennymi vozmozhnostyami zdorovya, 2011.
9. Nazarova N.M. Problemû i vozmozhnosti vnedreniya teoreticheskie i metodologicheskie osnovû obrazovatelnoy integratsii, 2011.
10. Jivitskaya A. I. Ravnûy sredi ravnûx ili opredelenie statusa lyudey s ogranichennymi vozmozhnostyami zdorovya, 2012.



11. Mihaylova N.N. Obùnost kak prinsip i rezultat inklyuzivnogo obrazovaniya, 2011.
12. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida. 25.03.2011 21-M.
13. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi O'RQ-695-son Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-695 of June 7, 2021 "On Ratification of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities"]. <https://lex.uz/ru/docs/-5447413/>.
14. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi O'RQ-637-son Qonuni 23.09.2020 5-M. Law of the Republic of Uzbekistan on Education No. ZRU-637 23.09.2020 5-M. <https://lex.uz/docs/-5013007/>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 1.12.2017. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to radically improve the system of state support of persons with disabilities]. 1.12.2017. <https://lex.uz/docs/-3436192/>.
16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-M. [Constitution of the Republic of Uzbekistan 41-M]. <https://constitution.uz/en/clause/index/>.
17. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 23.09.2020 9-M.// <https://lex.uz/docs/-5013007/>. Law of the Republic of Uzbekistan on Education 23.09.2020 9-M. <https://lex.uz/docs/-5013007/>.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 9, 2019 No. PF-5618 "On radical improvement of the system of raising legal awareness and legal culture in society"]. <https://lex.uz/docs/-4149765/>.
19. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi O'RQ-641-son Qonuni. 15.10.2020 38-M [Law No. ZRU-641 on the Rights of Persons with Disabilities 15.10.2020 38-M]. <https://lex.uz/docs/-5049511/>.
20. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi O'RQ-637-son Qonuni. 23.09.2020 23-M [Law of the Republic of Uzbekistan on Education No. ZRU No. 637 23.09.2020 23-M]. <https://lex.uz/docs/-5013007/>.